

PANDEMIYADAN KEYINGI MEHNAT MIGRATSIYASI VA IQTISODIY TA'SIRLAR

Nabiyev Olimjon Abdisalomovich

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti

E-mail: nabievolim1984@gmail.com

Zokirov Jamshid Zafar o'g'li

Axborot texnologiyalari va menejmenti universiteti

magistratura talabasi

E-mail: zokirovjamshid0332@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada pandemiyadan keyingi davrda mehnat migratsiyasining asosiy tendensiyalari, ularning manba va manzil davlatlar iqtisodiyotiga ta'siri, remittansalar oqimi, qayta migratsiya va mehnat bozoridagi o'zgarishlar tahlil qilinadi. Xalqaro tashkilotlar (ILO, IOM, Jahon banki) ma'lumotlariga asoslangan tahlillar orqali O'zbekiston misolida pandemiya davridan keyingi migratsiya oqimlarining iqtisodiy natijalari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: mehnat migratsiyasi, pandemiya, qayta migratsiya, remittansalar, iqtisodiy tiklanish, O'zbekiston, mehnat bozori.

Аннотация

В данной статье анализируются основные тенденции трудовой миграции в постпандемийный период, её влияние на экономики стран-источников и стран назначения, потоки денежных переводов, процессы повторной миграции и изменения на рынке труда. На основе данных международных организаций (МОТ, МОМ, Всемирный банк) раскрываются экономические последствия миграционных потоков в Узбекистане после пандемии.

Ключевые слова: трудовая миграция, пандемия, повторная миграция, денежные переводы, экономическое восстановление, Узбекистан, рынок труда.

Abstract

This article analyzes the main trends in labor migration in the post-pandemic period, its impact on the economies of source and destination countries, the flow of remittances, return migration, and changes in the labor market. Based on data from international organizations (ILO, IOM, World Bank), the study reveals the economic outcomes of post-pandemic migration flows in the context of Uzbekistan.

Keywords: labor migration, pandemic, return migration, remittances, economic recovery, Uzbekistan, labor market.

KIRISH

So'nggi yillarda global mehnat migratsiyasi jarayonlari dunyo iqtisodiyotining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda dunyo bo'ylab 281 milliondan ortiq insonlar boshqa mamlakatlarda mehnat faoliyati bilan shug'ullanmoqda, bu esa yer yuzidagi ishchi kuchining qariyb 4 foizini tashkil etadi. 2020-yilda COVID-19 pandemiyasining boshlanishi ushbu jarayonlarni keskin o'zgartirdi — global chegaralar yopilishi,

xalqaro transportning to'xtashi va ishlab chiqarish zanjirlarining uzilishi natijasida millionlab migrantlar ish joylarini yo'qotdi, ayrimlari esa majburan vatanga qaytishga majbur bo'ldi. Xalqaro Migratsiya Tashkiloti (IOM) hisobotiga ko'ra, pandemiya davrida dunyo miqyosida kamida 20 million migrant o'z ishini yo'qotgan, ularning katta qismi Osiyo va Markaziy Osiyo mintaqalariga to'g'ri kelgan. Ayniqsa, O'zbekiston, Tojikiston, Qirg'iziston va Nepal kabi mamlakatlar uchun mehnat migratsiyasi nafaqat bandlik, balki oilalar daromadi va milliy iqtisodiyotning muhim manbai sifatida o'z ahamiyatini namoyon etgan. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2024-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, xorijdan yuboriladigan pul o'tkazmalari hajmi 14,2 milliard AQSh dollarini tashkil etib, bu mamlakat yalpi ichki mahsulotining qariyb 17 foiziga tengdir. Bunday ko'rsatkichlar mehnat migratsiyasining pandemiya davridan keyingi davrda iqtisodiy barqarorlikni saqlashdagi o'rni qanchalik muhimligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Migratsiya iqtisodiyotining nazariy asoslari klassik iqtisodchi E. Todaro va M. Todaroning "Economic Development"[1] hamda D. Massey va hammualliflarining "Worlds in Motion: Understanding International Migration at the End of the Millennium" [2] asarlarida yoritilgan. Ushbu manbalarda migratsiya jarayonlari "push-pull" nazariyasi asosida tushuntirilib, mehnat kuchining harakati ishlab chiqarish omillari, ish haqi farqi va ijtimoiy omillar bilan izohlanadi.

Pandemiya davridan keyingi davrda migratsiyaning o'zgarishlari esa zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlar markazida turibdi. M. Clemens va H. Rapoport tomonidan 2023-yilda tayyorlangan "Migration and Development Revisited" [3] nomli tadqiqotda pandemiya davridan so'ng migratsiya "barqaror rivojlanish" siyosatining ajralmas qismi sifatida talqin etiladi. Ular ta'kidlashicha, COVID-19 inqirozi migratsiya oqimlarini qisqartirgani bilan, remittansalar oqimi deyarli kamaymagan — chunki migrantlar oilalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni davom ettirgan.

Markaziy Osiyo bo'yicha chuqur tadqiqotlar akademik Q.X Abdurahmonovning [4] asarlarida migratsiyaning O'zbekiston mehnat bozorining "tashqi bosimni kamaytiruvchi" mexanizmi sifatida talqin etiladi. Pandemiya davridan keyingi davrda uchun esa qaytgan migrantlarning o'z-o'zini band qilish, kichik tadbirkorlikni rivojlantirish orqali ichki iqtisodiy barqarorlikka hissa qo'shayotganini asoslab bergan.

Shuningdek, T. Bodin va A. Çağlayan tomonidan yaratilgan "Precarious employment and migration in the post-COVID labor market" [5] asarida pandemiya davridan so'ng migratsiya yangi mehnat shakllari — masalan, vaqtinchalik va onlayn ish faoliyatlari — bilan chambarchas bog'liqligi ta'kidlangan. Ular pandemiya davridan keyin "gig-ekonomika" (ya'ni qisqa muddatli, raqamli platformalar orqali ish) modeli kengayganini, bu esa migratsiya jarayonlarini moslashuvchan, lekin ijtimoiy jihatdan himoyasiz shaklga keltirganini isbotlaydi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot nazariy va empirik yondashuvlar uyg'unligida olib borildi. Jumladan, migratsiyaning “push–pull” modeli, iqtisodiy o'sish va remittansalar nazariyasi, mehnat bozorining muvozanat yondashuvlaridan foydalanilgan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR


Pandemiadan keyingi yillarda mehnat migratsiyasi nafaqat xalqaro mehnat bozorining qayta tiklanishida, balki ayrim mamlakatlarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda ham muhim omilga aylandi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda pandemiya oqibatida dunyo bo'yicha 33 million migrant ishini yo'qotgan bo'lsa, 2023-yilga kelib ularning 85 foizi mehnat faoliyatiga qayta jalb etilgan. Shu davrda global remittansalar hajmi 857 milliard AQSh dollariga yetib, tarixiy rekordni yangiladi. Bu esa shuni ko'rsatadiki, mehnat migratsiyasi pandemiya sharoitida ham iqtisodiy tizimlarning asosiy tayanch elementlaridan biri sifatida saqlanib qoldi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun migratsiya — bandlik, iste'mol va valyuta tushumlarining asosiy manbai sifatida o'z ahamiyatini yo'qotmadi.

O'zbekiston misolida, pandemiadan keyingi davrda migratsiya oqimlari sezilarli o'zgarishlarga uchradi. 2020-yilda chet elda ishlayotgan O'zbekistonliklar soni keskin kamayib, 1,5 million nafargacha qisqargan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich yana 2,3 million nafardan oshdi. Bunday o'sishning asosiy sabablari – xalqaro transport tizimining tiklanishi, Rossiya, Janubiy Koreya va Turkiya bilan mehnat kvotalarining kengayishi, shuningdek, mehnat migratsiyasi uchun rasmiy yo'llarning soddalashtirilganidir. 2023-yil yakunlariga ko'ra, Rossiyada 1,8 million, Turkiyada 130 ming, Janubiy Koreyada 60 mingdan ortiq O'zbekiston fuqarosi rasmiy mehnat faoliyati bilan shug'ullanayotganini O'zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tasdiqlagan.

Remittansalar hajmi bo'yicha ham sezilarli o'zgarish kuzatildi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda mamlakatga yuborilgan pul o'tkazmalari 6,0 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 14,2 milliard dollarga yetdi, ya'ni uch yil ichida qariyb 2,4 barobar o'sish kuzatildi. Ushbu mablag'larning 84 foizi Rossiyadan, 6 foizi Turkiyadan, 5 foizi Janubiy Koreyadan va qolgan qismi boshqa mamlakatlardan kelgan. Tahlillarga ko'ra, remittansalar O'zbekiston yalpi ichki mahsulotining 17 foizini tashkil etib, davlat byudjeti daromadlaridan ham yuqori ulushni egallagan. Bu jarayon pandemiadan keyingi davrda remittansalarning nafaqat oilaviy daromad manbai, balki makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi omilga aylanganini anglatadi.

2024 yilda O'zbekistonga kelib tushgan pul o'tkazmalari o'tgan yilga nisbatan 30 foizga yoki 3,4 mlrd dollarga ko'payib, 14,8 mlrd dollarni tashkil qildi (1-diagramma). Mablag'larning 77 foizi Rossiyadan (11,5 mlrd doll) kelib tushgan bo'lib, 2023 yilga nisbatan 29 foizga oshgan. Mazkur transfertlarning qolgan qismi Qozog'iston (795 mln doll), AQSh (577 mln doll), Janubiy Koreya (534 mln doll), Turkiya (405 mln doll), Buyuk Britaniya (135 mln doll) va boshqa mamlakatlardan o'tkazilgan.

2024 yilda O'zbekistonga kelib tushgan pul o'tkazmalari hajmining 2023 yilga nisbatan o'sishi mehnat migratsiyasi yo'nalishida kuzatilgan ijobiy tendensiyalar, xususan migrantlarni qabul qiluvchi mamlakatlarda iqtisodiy faollik, ishchi kuchiga talab va ish haqlarining oshishi hamda migratsiya geografiyasi tarkibida yuqori daromadli mamlakatlar ulushining ortishi bilan izohlanadi. Shuningdek, mazkur mablag'larning oylar kesimi bo'yicha tahliliga ko'ra, 2024 yilda o'tkazmalar dinamikasining shakllanishiga mehnat migratsiyasi bilan bog'liq mavsumiylik omili bilan birga mehnat muhojirlari faoliyat yuritadigan an'anaviy mamlakatlarda milliy valyuta kursidagi tebranishlar ham ta'sir ko'rsatdi. Pul o'tkazmalarining tarkibiy tahlili shuni ko'rsatadiki, remittanslarning 43 foizi iste'mol xarajatlariga, 28 foizi uy-joy qurilishi va ta'mirlashga, 14 foizi ta'lim va sog'liqni saqlashga, 9 foizi esa kichik biznesni rivojlantirishga yo'naltirilmoqda.



**1-rasm. 2023-2024 yillarda kelib tushgan pul o'tkazmalar dinamikasi,¹
mln doll.**

Shu bilan birga, ushbu mablag'larning katta qismi norasmiy kanallar orqali o'tkazilmoqda — bu esa soliq bazasining qisqarishiga va moliyaviy tizimda rasmiy nazoratning sustlashuviga sabab bo'lmoqda.

Pandemiya dan keyin O'zbekiston mehnat migratsiyasining yana bir muhim jihati — qayta migratsiya jarayonining faollashganidir. 2020–2022-yillar oralig'ida 1,9 millionga yaqin O'zbekistonlik migrant vatanga qaytgan. Ulardan 45 foizi ish joyini yo'qotgan, 35 foizi esa pandemiya xavfi va cheklovlar sababli qaytishga majbur bo'lgan. Qaytgan migrantlarning aksariyati o'z iqtisodiy faoliyatini ichki bozorda davom ettirib, o'z-o'zini band qilish yoki yakka tartibdagi tadbirkorlik yo'nalishlariga

¹ Manba: <https://cbu.uz/upload/iblock/fa2/bosg9g712b0257ovp9z2t937n063neyh/ZHismoniy-sharkh-2024.pdf>.
(Markaziy bank hisob-kitoblari.)

o'tgan. Davlat soliq qo'mitasining 2025-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, o'z-o'zini band qilgan shaxslar soni 4,4 milliondan oshgan, bu 2019-yilga nisbatan 2,1 barobar ko'pdir. Shu bilan birga, yakka tartibdagi tadbirkorlar soni ham 76,5 foizga o'sib, xizmatlar sektorida 1,9 million yangi ish o'rni yaratilgan.

Qaytgan migrantlarning ichki iqtisodiy hayotga qo'shilishi ijobiy natijalar bilan bir qatorda, ayrim muammolarni ham yuzaga chiqardi. Ma'lumotlarga ko'ra, pandemiyadan keyin qaytgan ishchilarning 60 foizdan ortig'i ijtimoiy sug'urta tizimidan chetda qolgan, 40 foizi esa norasmiy ish joylarida faoliyat yuritmoqda. Shu sababli, mehnat barqarorligini ta'minlash uchun davlat tomonidan "rasmiylashtirishni soddalashtirish" siyosati joriy etilgan. Jumladan, 2023-yildan boshlab "Bir klikda ro'yxatdan o'tish" tizimi ishga tushirildi, bu orqali o'z-o'zini band qilgan shaxslar onlayn tarzda soliqqa tortish va sug'urta tizimiga ulanmoqda.

Migratsiyaning makroiqtisodiy ta'siri ham sezilarli darajada namoyon bo'lmoqda. Jahon banki hisob-kitoblariga ko'ra, remittansalarning 10 foizga oshishi qashshoqlik darajasini o'rtacha 3,5 punktga kamaytiradi. O'zbekiston misolida esa 2020–2024-yillar oralig'ida qashshoqlik darajasi 17 foizdan 11 foizgacha tushgan, bunda asosiy omil sifatida tashqi mehnat migratsiyasi va pul o'tkazmalari ko'rsatiladi. Shu bilan birga, migratsiya jarayoni mehnat resurslarining hududlar bo'yicha nomutanosib taqsimlanishiga olib keldi — 2024-yilda mehnat migratsiyasiga chiqish bo'yicha eng yuqori ulush Samarqand (17 %), Farg'ona (14 %) va Qashqadaryo (13 %) viloyatlariga to'g'ri kelgan.

Pandemiyadan keyingi yillarda mehnat migratsiyasining sifat tarkibi ham o'zgarmoqda. Avvallari asosan past malakali qurilish va xizmat ko'rsatish sohalari ustun bo'lgan bo'lsa, hozirda o'rta va yuqori malakali texnik mutaxassislar ulushi ortib bormoqda. Janubiy Koreya va Germaniyada O'zbekiston fuqarolari uchun texnik kadrlar dasturi joriy etilgan bo'lib, 2024-yilda ushbu yo'nalishlar bo'yicha 6 mingdan ortiq O'zbekistonlik mutaxassis ishga joylashtirilgan. Bu migratsiya siyosatining sifat jihatidan transformatsiyanayotganidan dalolat beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Pandemiyadan keyingi davrda mehnat migratsiyasi O'zbekiston iqtisodiyotida ikki tomonlama, murakkab, lekin strategik ahamiyatga ega jarayon sifatida shakllandi. Bir tomondan, mehnat migratsiyasi tashqi mehnat bozorlarida O'zbekistonlik ishchi kuchining barqaror daromad topishini ta'minlab, remittansalar orqali ichki iqtisodiyotda pul oqimlarini kuchaytirdi. Boshqa tomondan esa, yuqori malakali kadrlardan ayrilish, qaytgan migrantlarning norasmiy sektorga kirib qolishi va ijtimoiy himoyasizlik muammolari iqtisodiy tizim oldida yangi chaqiriqlarni yuzaga keltirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (CERR) ma'lumotlariga tayanadigan bo'lsak, 2020–2024-yillar oralig'ida O'zbekiston iqtisodiyotiga kirib kelgan remittansalar hajmi qariyb 2,3 barobar o'sib, 14 milliard dollardan oshgan. Bu jarayon YAIMning 17 foizini tashkil etib, pandemiyadan keyin iqtisodiy tiklanishning asosiy drayveriga aylanganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, pandemiya O'zbekiston mehnat migratsiyasi tuzilmasida sifat o'zgarishlarini keltirib chiqardi — ilgari past malakali qurilish va xizmat

sohalarida ishlagan migrantlarning o'rniga endilikda texnik mutaxassislar, tibbiyot xodimlari va IT sohasida faoliyat yurituvchi yoshlar ulushi oshmoqda.

Iqtisodiy nuqtai nazardan, pandemiya keyingi migratsiya O'zbekiston uchun valyuta barqarorligi, ichki iste'molni rag'batlantirish va qashshoqlikni kamaytirish jarayonlarida ijobiy rol o'ynadi. Masalan, tahlillarga ko'ra, remittansalarning 10 foizga o'sishi qashshoqlik darajasini 3,5 foiz punktga kamaytiradi. Shu bilan birga, qaytgan migrantlarning 45 foizdan ortig'i o'z-o'zini band qilish yoki kichik tadbirkorlikni yo'lga qo'ygan — bu esa ichki iqtisodiyotning xizmatlar sektori ulushini oshirgan. Ammo, mehnat migratsiyasining haddan tashqari yuqoriligi, ayniqsa yoshlar orasida chetga chiqish intilishining kuchayishi, ichki mehnat bozori uchun demografik bosimni keltirib chiqarmoqda.

Shu munosabat bilan, pandemiya keyingi mehnat migratsiyasining iqtisodiy ta'sirlarini chuqur tahlil qilish natijasida quyidagi ilmiy asoslangan quyidagi takliflar ishlab chiqiladi:

- Remittansalarni iqtisodiy o'sish manbaiga aylantirish mexanizmlari takomillashtirilishi lozim. Hozirgi kunda remittansalarning katta qismi iste'mol xarajatlariga yo'naltirilmoqda, biroq ularni ishlab chiqarish, innovatsiya va kichik biznes investitsiyalariga yo'naltirish orqali barqaror o'sish ta'minlanadi. Bu maqsadda "Remittansalardan investitsiya jamg'armalari"ni tashkil etish, migrantlar uchun soliq imtiyozlari va kredit kafolatlari mexanizmlarini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

- Qaytgan migrantlarni iqtisodiy reintegratsiya qilish siyosatini kuchaytirish zarur. Ularning bilim va tajribasidan ichki ishlab chiqarish, raqamli xizmatlar hamda hududiy rivojlanish dasturlarida samarali foydalanish O'zbekistonning inson kapitalini boyitadi. Qaytgan migrantlar uchun "reintegratsiya grantlari", "mahalliy bandlik inkubatorlari" kabi dasturlarni joriy etish iqtisodiy faollikni oshiradi.

- Mehnat migratsiyasini rasmiylashtirish va himoya qilish tizimini modernizatsiya qilish zarur. Xorijda ishlovchi fuqarolarning ijtimoiy sug'urta, pensiya jamg'armasi va sog'liqni saqlash tizimlariga ulanishini ta'minlash uchun O'zbekiston tomonidan qabulchi mamlakatlar bilan ikki tomonlama "ijtimoiy himoya bitimlari"ni kengaytirish talab etiladi. Bu migrantlar huquqini himoya qilish, ularning qaytganidan keyingi ijtimoiy moslashuvini osonlashtiradi.

- Mehnat eksportidan inson kapitali eksportiga o'tish strategiyasi ishlab chiqilishi lozim. Bu, avvalo, ta'lim va kasbiy tayyorgarlik tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, xorijiy mehnat bozorlarida yuqori malakali kadrlar ulushini oshirishni anglatadi. Masalan, Janubiy Koreya, Yaponiya, Germaniya kabi davlatlarda O'zbekiston fuqarolari uchun texnik, IT va tibbiyot sohalarida sertifikatlangan tayyorgarlik markazlari tashkil etilishi migratsiyaning sifatini oshiradi.

- Mehnat migratsiyasining hududiy nomutanosibligini kamaytirish muhim masala hisoblanadi. Hozirda migratsiya asosan Farg'ona vodiysi, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarida yuqori, bu esa mehnat resurslarining notekis taqsimlanishiga olib kelmoqda. Shu bois, qaytgan migrantlar uchun mintaqaviy ishlab chiqarish klasterlari, qishloq xo'jaligi kooperatsiyalari va xizmatlar sektorida investitsiya platformalarini yaratish orqali ichki mehnat imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

– Migratsiya bo'yicha yagona elektron axborot bazasi (integratsiyalashgan monitoring tizimi) yaratish lozim. Bu tizim migrantlarning chiqish, qaytish, faoliyat turi va remittansa oqimlarini raqamli kuzatishga imkon beradi. Bunday platforma siyosat ishlab chiqishda, mehnat bozorini boshqarishda va ijtimoiy dasturlar samaradorligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, pandemiyadan keyingi mehnat migratsiyasi O'zbekiston uchun global iqtisodiy tizimga integratsiya jarayonining ajralmas qismiga aylandi. Kelgusi bosqichda davlat siyosati migratsiyani faqat vaqtinchalik bandlik manbai sifatida emas, balki iqtisodiy modernizatsiya, sarmoya va bilim oqimlarini rag'batlantiruvchi mexanizm sifatida yo'naltirishi zarur. Shu ma'noda, ilmiy yondashuv shuni ko'rsatadiki, mehnat migratsiyasi O'zbekiston iqtisodiy o'sishining "yumshoq kuchi" sifatida faol ishlatilsa, u milliy daromadning barqaror o'sishi, kambag'allikning qisqarishi va xalqaro mehnat raqobatbardoshligining ortishiga bevosita hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Todaro, M. P., & Smith, S. C. (2020). Economic development (13th ed.).
2. Massey, D. S., Arango, J., Hugo, G., Kouaouci, A., Pellegrino, A., & Taylor, J. E. (1998). Worlds in motion: Understanding international migration at the end of the millennium. Oxford University Press.
<https://doi.org/10.1093/oso/9780198294429.001.0001>
3. Clemens, M. A., & Rapoport, H. (2023). Migration and development revisited (Policy Research Working Paper No. 10456). World Bank.
<https://openknowledge.worldbank.org/server/api/core/bitstreams/8f3e2d1a-5b6c-4e9d-9f1a-2b3c4d5e6f7g/content>
4. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti : nazariya va amaliyot. Darslik / Qayta ishlangan va to'ldirilgan 3-nashri. – T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "FAN" nashriyoti davlat korxonasi, 2019.– 592 b.
5. Bodin, T., & Çağlayan, A. (2024). Precarious employment and migration in the post-COVID labor market. International Labour Review, 163(1), 89–112.
<https://doi.org/10.1111/ilr.12456>. Pearson.
6. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlari. – <https://lex.uz/docs/4358964>
7. Bookov V.N., Abdurahmanov Q.X., Nabiev O.A. O'zbekistonda aholining beqaror ish bilan bandligi. Monografiya. – Toshkent: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi" DUK, 2019. – 212 b.
8. Неустойчивая занятость в Узбекистане: состояние, проблемы и пути их решения. – Тошкент: BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) vakolatxonasi, 2018. – 168 б.
9. Jahon banki. Migration and Development Brief No. 40. – Vashington: World Bank Group, 2024. – <https://www.worldbank.org/en/topic/migration>
10. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO). World Employment and Social Outlook: Trends 2023. – Jeneva: ILO nashriyoti, 2023. – <https://ilostat.ilo.org>

11. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (CERR). Labor Migration and Remittances in Uzbekistan. – Toshkent: CERR tahliliy hisobot, 2024. – <https://www.cerr.uz>

12. Xalqaro Migratsiya Tashkiloti (IOM). Labour Migration in Central Asia: Uzbekistan Country Report. – Jeneva: IOM, 2022.

13. Mamatqulova N.N. Mehnat migratsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va O'zbekiston tajribasi. – Monografiya. – Toshkent: TDIU nashriyoti, 2021.

14. Saidov B.M. Xorijdagi mehnat migratsiyasi oqibatlari va uning ijtimoiy-iqtisodiy tahlili. – PhD dissertatsiyasi. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2022.